

O‘ZBEK VA FORS XALQLARINING TIL VA MADANIYAT UYG‘UNLIGI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-300-305>

Qo‘chqarov Elbek Abdivohid o‘g‘li

Talaba, Xalqaro munosabatlar, Siyosatshunoslik, 3-kurs
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
qochqorovlbek161@gmail.com

Ilmiy rahbar: Husainova Gulnoza Shuxratovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Sharq tillari” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada azaldan rivojlanib kelgan tarixiy va madaniy aloqalar asosida o‘zbek va fors xalqlari o‘rtasidagi til va madaniyat uyg‘unligi va bu ikki xalqning o‘zaro munosabatlardagi muhim jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – lingvistik, madaniy va tarixiy omillarni hisobga olgan holda, ikki xalq o‘rtasidagi mushtaraklik va keng qamrovli hamkorlikni aniqlashdir. Ushbu maqolada tarixiy manbalar, adabiy asarlar va linguokulturologik hamda boshqa yondashuvlardan foydalanib, fors tilining o‘zbek tilidagi o‘rni, madaniy merosdagi o‘xshashliklar va shuningdek, zamonaviy davrdagi hamkorlik aloqalari ko‘rib chiqiladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, til va madaniyat uyg‘unligi ikki xalqning tarixiy identitetini shakllantirishda va zamonaviy muloqot muhitini yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari o‘zbek va fors xalqlarining kelajakda ilmiy, madaniy, diplomatic hamkorlik doiralari yanada kengaytirishda asos bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: madaniyat, til, tarixiy aloqa, adabiy meros, muloqot, zamonaviy hamkorlik, madaniy diplomatiya.

LANGUAGE AND CULTURAL HARMONY OF THE UZBEK AND PERSIAN PEOPLE

Abstract. This article analyzes the linguistic and cultural harmony between the Uzbek and Persian peoples on the basis of the historical and cultural ties that have developed since ancient times, and the important aspects of the relationship between these two peoples. The purpose of the study is to identify the commonality and wide-ranging cooperation between the two peoples, taking into account linguistic, cultural and historical factors. This article, using historical sources, literary works, linguo-cultural and other approaches, examines the role of the

Persian language in the Uzbek language, similarities in cultural heritage, as well as cooperation in the modern era. The results obtained show that the harmony of language and culture is of great importance in forming the historical identity of the two peoples and establishing a modern environment for dialogue. The results of the study can serve as a basis for further expanding the scope of scientific, cultural, and diplomatic cooperation between the Uzbek and Persian peoples in the future.

Keywords: culture, language, historical ties, literary heritage, dialogue, modern cooperation, cultural diplomacy.

ЯЗЫКОВАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ГАРМОНИЯ УЗБЕКСКОГО И ПЕРСИДСКОГО НАРОДОВ

***Аннотация.** В данной статье анализируется языковая и культурная гармония между узбекским и персидским народами на основе историко-культурных связей, сложившихся с древнейших времен, и важных аспектов взаимоотношений между этими двумя народами. Цель исследования – выявить общность и широкое сотрудничество между двумя народами с учетом лингвистических, культурных и исторических факторов. В данной статье, используя исторические источники, литературные произведения, лингвокультурологический и другие подходы, исследуется роль персидского языка в узбекском языке, сходство в культурном наследии, а также сотрудничество в современную эпоху. Полученные результаты показывают, что языковая и культурная гармония имеет большое значение в формировании исторической идентичности двух народов и создании современной среды для диалога. Результаты исследования могут послужить основой для дальнейшего расширения сферы научного, культурного и дипломатического сотрудничества между узбекским и персидским народами в будущем.*

Ключевые слова: культура, язык, исторические связи, литературное наследие, диалог, современное сотрудничество, культурная дипломатия.

KIRISH.

O'zbek va fors xalqlari Markaziy Osiyoda boy tarixiy- madaniy merosning ajralmas qismini tashkil etadi. Ular o'rtasidagi madaniy va lingvistik aloqalar ming yillik tarix davomida shakllangan bo'lib, geografik yaqinlik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, savdo ayirboshlash va manaviy-ma'rifiy qadriyatlar orqali mustahkamlangan. Ushbu jarayonlar ikki xalqning til va madaniy merosining

uyg'unlashuviga olib kelgan, natijada o'zbek va fors madaniyati asrlar davomida o'zaro chambarchas bog'liqlikda rivojlanish tendensiyalarini aks ettirgan.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, fors tilining adabiyot, ilm-fan, san'at va boshqa yutuqlari o'zbek xalqi tomonidan yuksak baholanib, bir qancha so'z va iboralari o'zbek adabiy tiliga kirib kelgan va til me'yorlariga mos ravishda og'zaki va yozma nutq shakllarida keng foydalanilgan. Shuningdek, bu jarayon o'zbek tilining boyishiga va uning evolutsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, o'zbek adabiyotining rivoji ham fors adabiy an'alarining kengayishiga munosib hissa qo'shgan. Aytish joizki, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk allomalarning ijodida ikki madaniyat uyg'unligi yaqol namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, global madaniy almashinuv jarayonlari kuchayib boryotgan zamonaviy davrda xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni chuqur o'rganish, madaniy diplomatiya va o'zaro hamkorlikning yangi shakllarini aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek va fors xalqlarining til va madaniyat uyg'unligi nafaqat o'tmish merosining ifodasi, balki bugungi muloqot madaniyati va kelajak hamkorligi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ushbu maqola maqsadi – o'zbek va fors xalqlari o'rtasida asrlar davomida shakllanib kelgan til va madaniyat uyg'unligining tarixiy asoslari, lingvistik xususiyatlari hamda zamonaviy ko'rinishlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. O'zbek va fors xalqlari tarixiy aloqalari

O'zbek va fors xalqlari o'rtasidagi aloqalar ming yillar davomida shakllangan bo'lib, ularning tarixiy-madaniy uyg'unligida turli omillar muhim rol o'ynagan. Geografik yaqinlik, savdo yo'llari, o'zaro hamkorlik va diplomatik munosabatlar, shuningdek, urf-odat va qadriyatlar o'xshashligi ikki xalq o'rtasida mustahkam madaniy bog'liqlikni ifodalaydi. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo va Eron hududlaridagi sivilizatsiyalar o'rtasidagi savdo yo'llari, xususan Buyuk ipak yo'li, madaniy va ilmiy almashinuvning asosiy kaliti bo'lgan. Shu orqali falsafa, adabiyot, ilm-fan va san'at elementlari ikki madaniyatga o'tib, ularning o'zaro uyg'unlashuviga xizmat qilgan. O'zbek adabiyotining rivojida fors tili muhim vosita bo'lgan. Masalan, X asrdan boshlab fors adabiyoti namunalarining tarjimai va o'zbek tilida ijod qilinishi ikki tilning uyg'unligini kuchaytirgan. Xususan g'azal mulking sultoni – Alisher Navoiy nafaqat turkiy tilda asarlar yozib, mumtoz adabiyotimizni yuksak cho'qqilarga olib chiqdi, balki fors tilida ham “Foniy” taxallusi bilan ko'plab g'azal-u ruboiy hamda dostonlar yozib, munosib nom qoldirdi. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy ijodida ham fors va o'zbek tili elementlari uyg'unlashib, yangi adabiy ifoda shakllangan. Ularning beqiyos asarlari

ikki madaniyatning tarixiy va madaniy aloqalarini saqlovchi manba sifatida qaralishi mumkin.

Madaniy uyg'unlik jarayonlari

O'zbek va fors xalqlarining mushtatakligi ayniqsa, madaniy hayotda insonlarning turmush tarzida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunga yorqin misol qilib kundalik hayotdagi an'analar, urf- odatlar, to'y va marosimlarni keltirishimiz mumkin. Ayniqsa Navruz ham o'zbek ham fors xalqlari hayotida umummilliy bayram sifatida keng nishonlanadi. Shuningdek, xalq ijodi namunalari, turli xil musiqiy festivallar ikkala madaniyatda ham birdek saqlanib qolgan. Xususan, san'at va me'morchilikda qo'llanilgan turli xil naqsh va bezaklar o'zbek va fors estetik qadriyatlarining uyg'unlashganini aks ettiradi va bu esa madaniy almashinuv qay darajada yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Bu kabi misollar ,shubhasizki, ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Til uyg'unligi va lingvistik ta'sir

O'zbek va fors xalqlari o'rtasidagi til uyg'unligi tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan va lingvistik jihatdan chuqur o'zaro ta'sirga asoslangan hodisa hisoblanadi. Bu jarayon asosan o'zbek tilining adabiy va kundalik qatlamlarida fors tilidan olingan so'zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar orqali namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ilm-fan, adabiyot, diniy-ritual sohalaridagi terminlar asosan forsha ildizlarga ega bo'lgan. Ushbu leksik o'zaro ta'sir natijasida o'zbek tili boy va ifodali lug'atga ega bo'lgan. Fors tilidan o'zlashgan so'zlar o'zbek adabiy matnlarida tabiiy ravishda ishlatilgan va ko'plab ijodiy asarlarda ma'nolarni boyitishga xizmat qilgan.

Lingvokulturologik yondashuv

Lingvokulturologik nuqtai nazardan, til uyg'unligi faqat so'z va grammatik elementlarda emas, balki ma'naviy qadriyatlar, odatlar va ijtimoiy madaniyatni ifodalashda ham ko'rinadi. O'zbek va fors xalqlari o'rtasidagi til o'zaro muloqot va madaniy almashinuv vositasi sifatida xizmat qilgan. Bu uyg'unlik ikki xalqning tarixiy identiteti va madaniy merosini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Til bu jarayonda kommunikativ vosita bo'lishdan tashqari, madaniy merosni avloddan avlodga yetkazuvchi ruhiy ko'priq sifatida xizmat qiladi. O'zbek va fors tillarida uchraydigan umumiy konseptlar — mehmondo'stlik, kattaga hurmat, saxovat, mehr-shafqat kabi qadriyatlar — ikki xalqning mentalitetidagi uyg'unlikning tilga aks etgan ko'rinishidir. Natijada, o'zbek va fors xalqlarining til-madaniy aloqalari nafaqat o'tmishni bog'lab turadi, balki bugungi kunda ham madaniy integratsiya, o'zaro tushunish va hamkorlikning muhim omili sifatida davom etmoqda.

Zamonaviy davrdagi o'zaro hamkorlik

Bugungi kunda o‘zbek va fors xalqlari o‘rtasidagi madaniy va lingvistik uyg‘unlik nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy muloqot va hamkorlik jarayonlarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Globalizatsiya, diplomatic aloqalar, ta’lim va ilmiy almashinuv dasturlari yangi imkoniyatlar yaratib, ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy-madaniy bog‘liqlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, madaniy diplomatiya va ilmiy hamkorlik so‘nggi paytlarda juda faol tarzda amalga oshirilmoqda. Bunga yorqin misol, har yili xalqaro konferensiyalar, madaniy festival va ko‘rgazmalar o‘tkazilib turadi va bu esa ikki xalqning o‘zaro madaniy almashinuvlari faol yo‘lga qo‘yilganligiga ramziy ma’noda tasdiq beradi. Shu bilan birga, universitetlar va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlik, tarjima va tadqiqot ishlari ikki madaniyatni yanada yaqinlashtirmoqda. Xususan, O‘zbekiston universitetlarida fors tili va adabiyoti o‘qitilishi, shuningdek, Erondagi yetakchi oliy o‘quv yurtlaridan biri Alloma Tabatabaia bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘rtasidagi o‘zbek tili bo‘yicha qo‘shma hamkorlik dasturlari ikki xalq o‘rtasidagi lingvistik va madaniy almashinuvni rag‘batlantiradi va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlik rishtalarini mustahkamlash hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shubhasizki, bu jarayonlar yosh avlodni ikki madaniyat haqida ko‘proq bilimga ega bo‘lishga yordam beradi va o‘zaro hamkorlikni yuqori darajaga olib chiqadi.

XULOSA.

O‘zbek va fors xalqlarining til hamda madaniyat uyg‘unligini o‘rganish nafaqat lingvistik jarayonlarni anglash, balki ikki xalqning ko‘p asrlik tarixiy, ma’naviy va madaniy aloqalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Tadqiqot orqali ma’lumki, til uyg‘unligi - bu oddiy leksik almashuv emas, balki keng qamrovli madaniy integratsiya jarayoni bo‘lib, u xalqning dunyoqarashi, adabiy merosi va ijtimoiy qadriyatlarida mujassamdir. Shuningdek, adabiyot - ayniqsa Navoiy va Jomiy ijodi — ikki xalqning ruhiy yaqinligi va madaniy uyg‘unligini eng yorqin ifodalovchi manbalar sifatida alohida o‘rin tutadi. Lingvokulturologik tahlillar esa o‘zbek va fors madaniyatlarida bir qancha umumiy tushunchalar o‘zaro hamohang tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu esa til va madaniyat o‘zaro ta’sirining murakkab, ko‘p qatlamli va davriy xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek–fors madaniy aloqalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ushbu yaqinlik ilmiy izlanishlar, madaniy almashinuvlar, ta’limiy loyihalar va diplomatik munosabatlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur mavzuning chuqur o‘rganilishi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir chunki u turkiy va forsiy madaniyatlar o‘rtasidagi tarixiy birlikni yanada yoritadi, xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamlaydi, tilshunoslik va madaniyatshunoslikka yangi ilmiy

istiqbollar ochadi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot o‘zbek va fors xalqlari o‘rtasidagi til-madaniy uyg‘unlikning tarixiy ildizlari, lingvistik mexanizmlari va zamonaviy ahamiyatini har tomonlama yoritishga qaratilgan. Kelgusida ushbu yo‘nalishda yanada kengroq, ilmiy asosga ega tadqiqot ishlarini olib borishda mazkur maqola muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Jomiy va Navoiy: fors-tojik va o‘zbek ilmiy-adabiy aloqalari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari ; – Toshkent:, «Tafakkur» 2020.
2. Davood Kiani, Iran and Central Asia: Cultural perspective
3. <https://aps.tsuos.uz/storage/users/62/articles/eBNc9rSgmv5E6ie3fYnt6I3HlQCFCzuupNYmzjdw.pdf>
4. <https://www.ziyouz.com/.../O%27zbekiston%20madaniyati.pdf>
5. https://jices.ut.ac.ir/article_100653_cf26e211879b81dd86ef6cda37494e96.pdf?utm
6. <https://www.researchgate.net/publication/350491794>
7. https://tsuull.uz/sites/default/files/lingua-pragmatic_analyze_of_politeness.pdf
8. https://www.academia.edu/122155799/Uzbekistan_language_and_culture